

TURIZM SOHASIDAGI RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING MUHIMLIGI

O'tkirjon Axmedov Alaviddin o'g'li

Alfraganus University Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

Iqtisodiyot fakulteti Iqtisod kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasidagi raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhimligi, xalqaro turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish tendensiyalari, O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish holati haqida batafsil bayin qilingan.

Kalit so'zlar: turizm sohasi, raqamli iqtisodiyot, tendensiyalar, turistik salohiyat, bozor munosabatlar.

Kirish:

Turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish, hamma xizmatlar iste'molchilariga, ham maishiy xo'jaliklarga, ham davlat organlariga, ham faoliyati muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan turizm sohasidagi firmalarga ta'sir qiladigan murakkab jarayon sanaladi. Ichki va tashqi muhitning mos omillarini rivojlantirishda turizm sohasidagi korxonalar o'z faoliyatini raqamli rivojlantirish uchun hamma kerak shart-sharoitlarga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Turizmni rivojlantirish darajasi – mamlakat, uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini tavsiflovchi parametrlardan biridir. Turizm sohasida ayniqsa innovatsiyalar asosiy rol o'ynaydi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, turizm rentabelligi va rivojlanish dinamikasi bo'yicha neft va gazni qazib olish va qayta ishlashdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Turizm inson hayoti va faoliyatining ko'p sohalarini qamrab oladi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy takomillanishining o'ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo'jaligi, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa shu kabi asosiy sektorlarining shakllanishiga yuqori ta'sir qiladi. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri – turizm industriyasidir. Turizm – bu ishbilarmonlik sohasining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib xorijiy turistlar doimiy oqimini jalb qiladi.

Natijalar:

Mamlakat ulkan turistik salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi, shuningdek tarmoqni boshqarish tizimi globallashtirish va keskin raqobat muhitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi, xizmat ko'rsatish

sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan orqada qolmoqda, deyiladi farmonga berilgan rasmiy sharhda.

Globallashuv muhitida O'zbekistonda xalqaro turizm sohasini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yuzaga kelganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotida asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, turizm tarmog'ining rivojlanishi, yuqori samaradorlikning rag'batlantirilishi iqtisodiyotning asosiy sektorlarini, ya'ni transport, aloqa, qurilish, savdo, qishloq xo'jaligi, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, mashinasozlik va boshqalarning o'sishiga olib keladi.

Muhokama:

Xalqaro turizm sohasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli katalizatori bo'lib chet el valyutasi va sarmoyalar oqimini ta'minlaydi, unga yaqin sohalarning tez o'sishiga, aholi bandligi masalalarini hal qilishda yordam beradi va davlatning dunyo hamjamiyatidagi obro'sini oshiradi. Boshqa sohalar bilan qiyoslaganda ancha kam sarf - xarajat bilan turizm sohasida katta valyuta miqdori kelib tushishini ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston xalqaro turizmini takomillashtirish uchun xizmat qila oladigan milliy resurslarning anchasi hali ochilmagani katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida xalqaro turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari davlat tomonidan belgilangan bo'lib, iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun turli bitimlar, kelishuvlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xalqaro turizm jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli va jadal rivojlanib boruvchi sohalardan sanalib, xalqaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda asosiy o'rin egallamoqda. Oxirgi yillar ichida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bo'lishiga qaramay, turizm xizmatlari yuqori iste'mol talabi va yetarlicha barqarorligini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qudratov G.H., Tuxliyev I.S. Turizm iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - S.: SamlSI, 2007.
2. Abduxamidov S.A., Tuxliyev O.I., Hamitov M.X. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish tendensiyalari. "Iqtisodiyot va Taiim" jurnali, № 2. -T., 2015.
3. Tashmurotov T.T., Saidov A., Umarqulov E. Turizm iqtisodi. -T.: TMI, 2000.
4. Tuxliyev I.S., Xayitboyev R., Iboduliyev N.E., Axnriddinova R.S. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. -S.: SamlSI, 2010.